

INTIZOR USMONOVA

ONLINE TEST

MAVZU: OLMOSH SO'Z TURKUMI

1. Qaysi javobda olmosh turkumiga oid so'z berilmagan?
A) har kim B) har qachon C) har doim D) har nima
2. Qaysi so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inga tushmagan? 1) allakim
2) hech kim 3) har kim 4) kimdir
A) 1,2,3,4 B) 1,2,3 C) 1,3,4 D) 1,2,4
3. O'xshatish qo'shimchalari olmoshning qaysi turiga qo'shilsa,
tovush ortishi sodir bo'ladi?
A) kishilik olmoshi B) o'zlik olmoshi
C) ko'rsatish olmoshi D) belgilash olmoshi
4. Olmoshning qaysi turi kishilik olmoshi o'rnilida qo'llanadi?
A) o'zlik olmoshi B) so'roq olmoshi
C) belgilash olmoshi D) ko'rsatish
5. Qaysi gapda og'zaki so'zlashuv nutqiga xoslangan qo'shma

olmosh qo'llangan ?

- A) Ehsonning Moskvaga ketishi mana shu kunlarga to'g'ri keladi
 - B) So'fi hech narsa demay o'rnidan turdi
 - C) Anavini qara-ya , o'zimizning to'pori Zebimi shu ?
 - D) U shunday mo'jizaviy xazinaki , qancha olsangiz ham , bir qatrasи kamaymaydi
6. Lekin buni u hech qachon hech kimga aytmagan edi .
- Mazkur gapda qo'llangan "ichi bo'sh so'zlar" qanday sintaktik vazifa bajargan?
- 1) ega 2) vositasiz to'ldiruvchi
 - 3) vositali to'ldiruvchi
 - 4) payt holi 5) sifatlovchi aniqlovchi
- A) 1,2,3,4 B) 2,3,4,5 C) 2,3,5 D) 1,2,4
7. Qaysi gapda olmoshning tuzilishiga ko'ra ikki turi qo'llangan ?
- A) Hech kim baxtni o'z-o'zidan quchgan emas
 - B) U ertadan shu to'garagiga qatnashmoqchi ekan
 - C) Hech qanaqa shartim yo'q , ishlab u-bu orttirish niyatim ham yo'q
 - D) Siz-u biz shu ishga bel bog'lamasak , hech kim qilmaydi
8. Qaysi gapda jamlik olmoshi qo'llangan ?

- A) Ulug' ajdodlarimiz ulm-u ma'rifatlari bilan ham butun olamni fath etganlar
- B) O'g'limning har bir holidan xabar olib turish sening vazifangidir
- C) Har kimki vafo qilsa , vafo topqusidur
- D) Mening onam usti butun , ichi tutun ayollardan edi

9. Tinchlik deya yurak-bag'ri kuyuk eldir bu ,

Yaratganning qoshida eng suyuk eldir bu ,

O'tmishi ham , ertasi ham buyuk eldir bu ,

Menga qanday yashamoqni o'rgatmagil sen! (I. Mirzo)

Mazkur to'rtlikning necha o'rnida olmosh qo'llangan ?

- A) 6 ta
- B) 5 ta
- C) 4 ta
- D) 7 ta

10. Olmoshlarning qaysi turi kelishik qo'shimchalari bilan turlanganda tovush ortishi va tushishi sodir bo'ladi ?

- A)kishilik
- B) bo'lishsizlik
- C) belgilash
- D) ko'rsatish

11. Qaysi mustaqil so'z turkumi atash ma'nosiga ega emas?

- A. Ot.
- B. Son.
- C. Olmosh.
- D. Ravish.

12. O'zlik olmoshi bilan qo'llangan kishilik olmoshiga ta'kid ma'nosi yuklangan gapni aniqlang.

- A) Biz o'z tuprog'imizni ko'z qorachig'idek asraymiz.

- B) O'zim ham hayronman.
- C) Bu ishlami qilgan o'zi.
- D) Mening o'zim unchalik yomon odam emasman.

13. Bo'lishsizlik olmoshi ishtirok etgan gapni aniqlang.

- A) Kimdir allanima dedi.
- B) Birov unday deydi, birov bunday deydi.
- C) Har kim bilganini gapiryapti.
- D) Men hech narsa demadim.

**14. Shaxs, narsa, belgi, harakatlarni jamlab ifodalaydigan
olmoshlarni belgilang.**

- A) Allakim, qanday.
- B) Ana u, mana bu.
- C) Qachondir, o'sha-o'sha
- D) Hamma, butun.

15. Faqat ajratib yoziladigan olmoshlarni belgilang.

- A) Shunday, o'shanaqa B) Manabu, anashu.
- C) Kimdir, allaqanday D) Harnarsa, hechqachon.